


2018 yil yanvar-noyabr oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda xizmatlar sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yil yanvar-noyabr oylarida Andijon viloyatida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 7221,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,6 % ni tashkil etdi.


2018 yilda Andijon viloyatida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Ma'lumot uchun: 2017 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 6038,7 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 1183,2 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2018 yil yanvar-oktabr oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 739,3 mlrd. so'mga ko'paydi.

2018 yilda Andijon viloyatida ayrim xizmat turlari
hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (247,6 mlrd so'mga), transport xizmatlari (176,0 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (109,0 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (36,8 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	7221,9	107,6
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	447,6	112,8
moliyaviy xizmatlar	984,1	131,6
transport xizmatlari	1719,2	102,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1678,4	103,2
yashash va ovqatlanish xizmatlari	116,2	103,9
savdo xizmatlari	2461,6	104,8
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	219,9	102,1
ta'lim sohasidagi xizmatlar	279,0	95,1
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	100,8	122,2
ijara xizmatlari	171,1	111,1
kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	188,3	104,1
shaxsiy xizmatlar	321,2	101,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	38,3	113,5
boshqa xizmatlar	174,6	108,2

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (131,6 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (122,2 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (113,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (112,8 %), ijara xizmatlari (111,1 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.


2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (102,1 %), shaxsiy xizmatlar (101,6 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (95,1 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismidan ko'prog'ini savdo xizmatlari tashkil etadi. 2018 yil yanvar-noyabr oylarida uning ulushi 34,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (23,8 %), moliyaviy xizmatlar (13,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,2 %) egallaydi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi



Ma'lumot uchun: Qirg'iziston Respublikasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining qariyb to'rt dan uch qismini avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda ulgurji va chakana savdo bo'yicha xizmatlar tashkil etadi. 2018 yil yanvar-sentabr oylarida bu xizmatlarning ulushi 74,4 % ni tashkil etdi. Ushbu davrda transport faoliyati va yuklarni saqlash 7,3 %, aloqa va axborotlashtirish - 5,5 %, moliyaviy vositachilik va sug'urta - 3,5 % ulushni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2382,6 ming so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish 5,8 % ni tashkil qildi.



Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 984,1 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 131,6 % ni tashkil etdi.


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (89,2 %) katta salmoqqa egadir.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 116,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish 3,9 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 1,6 % ni tashkil etmoqda.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 90,0 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi esa 10,0 % ga to'g'ri kelmoqda.

Andijon viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

(+998) 71-230-82-63

(+998) 71-230-82-64